

**ELEKTR ENERGIYASINI BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA  
KO'RSATKICHLARI****Nurullayev Orzikul Ubaevich***Jizza Politexnika instituti Elektr texnologiyasi kafedrası**+998919431810; orziqulnurullayev63@gmail.com**2-bosqich talabasi***O'sarov Jamshid O'sarovich**

**Annotatsiya:** *Jahonda aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasi ta'minotiga ehtiyojini to'liq va uzluksiz qondirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarishni oshirish va uning ta'minoti hisobini yuritishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, «2021 yilda jahonda qayta tiklanadigan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi yangi rekordni qayd etib, jami yaratilgan elektr energiyaning 6 foizini tashkil qilib, deyarli 295 GVtga yetdi».*

**Kalit so'zlar:** *Jahonda, iste'molchilar, elektr energiyasi, talab va taklif, sub'ektlari, buxgalteriya hisobi, dolzarbligi va me'yoriy-huquqiy asoslari.*

**Kirish**

Elektr energiyasi ta'minoti sub'ektlariga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish va ular moliyaviy faoliyatini asosli baholashni takomillashtirish, elektr energiya ta'minoti sub'ektlarida buxgalteriya hisobini samarali yo'lga qo'yish orqali ularning moliyaviy holatini baholash shaffofligini oshirishni taqozo etmoqda. Jahonda iste'molchilarga elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash maqsadida elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga oid izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu izlanishlarda elektr energiyasi ta'minoti korxonalarining hisob siyosatini ishlab chiqish, aktivlarni tacniflash, ularni tan olish, baholash, hisobini tashkil etish va yuritish belgilab berilgan. Elektr energiyasiga talab va taklifning o'zgaruvchan bo'lib qolayotgani, elektr energiyasini tovar sifatida katta hajmda saqlab turish imkoniyatining yo'qligi kabi ta'minot korxonalarida faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlar hisobini tashkil qilish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tayotgan energetika sohasidagi xo'jalik sub'ektlarida ushbu standartlarni qo'llash kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda elektr energiyasi ta'minoti korxonalarini transformatsiya qilish hamda ularga investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, aholining jon boshiga ishlab chiqarilgan elektr energiyasini uzluksiz oshirib borish masalalariga ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. «2030 yilga qadar elektr energetika tarmog'ida, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda ishlab chiqarish quvvatlarini

rivojlantirish va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish belgilangan».54 Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, eskirgan asosiy vositalarni yangilash, elekt energiyasi sanoatiga bozor mexanizmlarini keng joriy etish, elekt energiyasi tami'noti korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari samarali joriy qilish orqali ularning investitsion jozibadorligini oshirish zarur. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 iyundagi PF6010-son «Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2017 yil 29 maydagi PF-5059-son «Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2019 yil 27 martdagi PQ-4249- son «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 14 noyabrdagi PQ-3384-son «Elektr energiyasi va tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini jadal joriy etish choratadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 26 maydagi PQ-3012-son «2017- 2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish choratadbirlari dasturi to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 dekabrda VM-1050-son «Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori va 2020 yil 28 fevraldagi VM-111-son «Tadbirkorlik sub'ektlarini elektr tarmoqlariga ulash tartibini soddalashtirish va biznes muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Tahlil va natijalar: Elektr energiyasi sanoatining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'рни va uni rivojlantirish zarurligini asoslash; elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida buxgalteriya hisobining ahamiyati, dolzarbligi va me'yoriy-huquqiy asoslari tadqiq etish; elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida buxgalteriya hisobiga oid xorijiy tajribadan foydalanish istiqbollari tahlil qilish; elektr energiyasi ta'minoti sub'ektlarida buxgalteriya hisobi va soliq hisobi hisob siyosatini shakllantirishni takomillashtirish; elektr energiyasi ta'minoti korxonalarining aktivlari, xususiy kapitali va majburiyatlari hisobini tashkil etishni takomillashtirish; elektr energiyasi ta'minoti sub'ektlarida buxgalteriya hisobini yuritishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash yo'nalishlarida takliflar berish; elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish. Elektr energiya ta'minoti sub'ektlarida moliyaviy hisobotlar va aylanma-qoldiq qaydnoma ma'lumotlaridan foydalanib, xarajatlar xususiyatiga ko'ra foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tuzishning «Ishchi transformatsiya jadvallari» ishlab chiqilgan; 0120 – «Bino, inshoot va o'tkazuvchi moslamalar» ni hisobga

oluvchi schyot tarkibida elektr energiyasi tannarxini va boshqa tovar hamda xizmatlar tannarxini to'g'ri shakllantirish uchun 0123 – «Uzatish simlari», 0124 – «Tayanchlar» va 0125 – «Izolyatorlar» ishchi schyotlarini ochish taklif etilgan; 0130 – «Mashina va asbob-uskunalar» ni hisobga oluvchi schyot tarkibida asosiy vositalarning elektr energiyasini uzatishdagi ishtiroki va xususiyatlaridan kelib chiqib, 0131 – «Kuchlantiruvchi transformatorlar», 0132 – «Kuchlantiruvchi mashina va uskunalar» va 0132 – «O'lchov va boshqaruv moslamalari» ishchi schyotlarini ochish taklif etilgan; elektr energiyasi ta'minoti sub'ektlarida «franko-iste'molchi» asosida tannarxni elektr uzatishning turli tarmoqlari bo'yicha hisoblash tizimi ishlab chiqilgan. Sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib, elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida moliyaviy hisobotning xalkoro standartlari asosida hisob yuritish uchun schyotlar rejasi amaliyotga joriy etilgan; asosiy vositalarning turi va joylashgan joyidan kelib chiqib, har bir ob'ekt (predmet)ga o'n ikki belgidan iborat inventar raqami berish uculli taklifi amaliyotda qo'llash uchun qabul qilingan; elektr energiyasi ishlab chiqaradigan tadbirkorlik sub'ektlaridan xarid qilingan elektr energiyasi uchun qarzdorlikni 6011 – «Tadbirkorlik sub'ektlariga elektr energiya uchun qarz» alohida ishchi schyotida hisobga olish taklifi amaliyotga joriy etilgan; xalqaro standart talablariga ko'ra mehnat ta'tillari uchun ular boshlanmasidan avval xodimlarga mehnat ta'tili uchun rezerv yaratish formulasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 martdagi PQ4249-son «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 7 fevral, № PF-4947.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi Qarori. 2016 yil 27 dekabr. № PQ-2699.